

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 208 sahifa.
2025-yil, 12-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA

Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li

TDIU, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarni jalb etish masalalari xalqaro tajriba asosida tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida tijorat banklari faoliyatining samaradorligi ularning nafaqat milliy miqyosdagi resurs bazasiga, balki xalqaro moliya bozorlaridan uzoq muddatli mablag'larni shakllantirish salohiyatiga ham bog'liq ekani asoslab berilgan. Yevropa, AQSh, Yaponiya va Xitoy tajribasi tahlil qilinib, obligatsiyalar bozori, pensiya jamg'armalari, ipoteka kreditlari va fond bozorining uzoq muddatli resurslar shakllanishidagi o'rni ko'rsatib berilgan. Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bank amaliyoti ham o'rganilib, qisqa muddatli strategik yondashuvlarning kamchiliklari va uzoq muddatli barqaror strategiyaning zarurligi ta'kidlangan. Tadqiqotda resurs bazasini mustahkamlashga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar – qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholining talabini mahalliy ishlab chiqarish hisobidan qondirish kabi jihatlar muhim determinant sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, uzoq muddatli resurslar, xalqaro tajriba, obligatsiya bozori, pensiya jamg'armalari, fond bozori, ipoteka kreditlari, Federal xazina tizimi, moliya integratsiyasi, makroiqtisodiy barqarorlik.

Abstract: The article analyzes the issues of attracting long-term resources by commercial banks based on international experience. It substantiates that in the context of globalization, the efficiency of banking activities depends not only on the national resource base but also on the ability to mobilize long-term funds from international financial markets. The practices of Europe, the United States, Japan, and China are examined, highlighting the role of bond markets, pension funds, mortgage lending, and stock markets in the formation of long-term resources. Furthermore, the experience of CIS countries is studied, emphasizing the shortcomings of short-term strategies and the necessity of adopting long-term sustainable policies. The research identifies key socio-economic determinants influencing the strengthening of the resource base, including the development of the securities market, ensuring macroeconomic stability, and meeting consumer demand through domestic production.

Keywords: Commercial banks, long-term resources, international experience, bond market, pension funds, stock market, mortgage lending, Federal Reserve System, financial integration, macroeconomic stability.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы привлечения долгосрочных ресурсов коммерческими банками на основе международного опыта. Обосновано, что в условиях глобализации эффективность деятельности банков зависит не только от национальной ресурсной базы, но и от способности привлекать долгосрочные средства с международных финансовых рынков. Проанализирован опыт Европы, США, Японии и Китая, где особое внимание уделяется роли рынка облигаций, пенсионных фондов, ипотечного кредитования и фондового рынка в формировании долгосрочных ресурсов. Также исследована практика стран СНГ, где выявлены недостатки краткосрочных стратегических подходов и подчеркнута необходимость долгосрочной устойчивой стратегии. В работе отмечены социально-экономические факторы, влияющие на укрепление ресурсной базы: развитие рынка ценных бумаг, обеспечение макроэкономической стабильности, а также удовлетворение спроса населения за счёт местного производства.

Ключевые слова: Коммерческие банки, долгосрочные ресурсы, международный опыт, рынок облигаций, пенсионные фонды, фондовый рынок, ипотечное кредитование, Федеральная резервная система, финансовая интеграция, макроэкономическая стабильность.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida tijorat banklari faoliyatining samaradorligi milliy iqtisodiyot barqarorligi va moliyaviy tizimning raqobatbardoshligi bilan uzviy bog'liqdir. Bank tizimi nafaqat ichki bozorda resurslarni samarali taqsimlash, balki xalqaro moliya bozorlaridan uzoq muddatli moliyaviy manbalarni jalb etish orqali iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayveriga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlarda uzoq muddatli resurslarni shakllantirish mexanizmlari iqtisodiyotning investitsion salohiyatini

kengaytirish, kapital yetarilgini oshirish va bank sektorining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda obligatsiya bozori, pensiya jamg'armalari, ipoteka kreditlari va fond bozorining samarali faoliyati tijorat banklari uchun asosiy moliyaviy manbalar sifatida shakllangan. Masalan, Yevropa mamlakatlarida banklarning uzoq muddatli resurslari asosan obligatsiya bozori va pensiya tizimi hisobidan ta'minlanayotgan bo'lsa, AQShda fond bozori va ipoteka kreditlash tizimi yetakchi o'rin tutadi. Xitoy va Yaponiya tajribasi ham bank resurs bazasining hajmini oshirish va uni diversifikatsiya qilishda o'ziga xos yondashuvlar bilan ajralib turadi.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalarni o'rganish va ularni milliy bank tizimiga moslashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Chunki xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilish nafaqat tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash, balki real sektorni kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiyotning global integratsiyasini jadallashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, uzoq muddatli resurslarni shakllantirish masalasini qisqa muddatli stixiyali yondashuv emas, balki uzoq muddatli strategiya va barqaror siyosat asosida amalga oshirish zarurati dolzarb masala sifatida maydonga chiqmoqda.

Tadqiqot doirasida xalqaro tajribalar bilan bir qatorda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bank amaliyoti ham tahlil qilinib, ular o'zining o'ziga xos jihatlari va cheklovlari bilan baholanadi. Bundan tashqari, milliy banklar resurs bazasini kengaytirishga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy determinantlar — qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini mahalliy ishlab chiqarish hisobidan qondirish, inflyatsiya va ishsizlikning barqaror darajada saqlanishi kabi omillar ilmiy asosda yoritib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Stiglitz, J. & Weiss, A. (1981) kredit bozori va resurslarni jalb qilish mexanizmlarini tahlil qilib, uzoq muddatli resurslarni shakllantirishda axborot nomutanosibligi va risklarni baholashdagi muammolarni asosiy to'siq sifatida ko'rsatadilar[1]. Ularning fikricha, banklarning uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlari samarali kredit baholash mexanizmlariga tayanishi kerak.

Allen, F. & Gale, D. (2000) bank tizimida moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli resurslarning ahamiyatini o'rgangan[2]. Ularning yondashuviga ko'ra, uzoq muddatli moliyaviy manbalar bozor shoklariga chidamlilikni oshiradi va iqtisodiyotning inqirozlarga bardosh berish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Demirgüç-Kunt, A. & Maksimovic, V. (1998). Tadqiqot mualliflari korxonalar va banklar o'rtasidagi uzoq muddatli moliyaviy aloqalarni o'rgangan[3]. Ularning xulosasiga ko'ra, bank tizimining uzoq muddatli resurslarni jalb etishdagi salohiyati iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini belgilaydi.

Mahalliy olim Berdiyarov B. (2025). Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlarini oshirish masalalarini o'rgangan[4]. Uning fikriga ko'ra, uzoq muddatli resurslarni jalb qilish bank likvidligini mustahkamlashda va qimmatli qog'ozlar bozorining rivojida muhim rol o'ynaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarni jalb qilish masalalari xalqaro va milliy tajribalar asosida o'rganildi. Metodologik yondashuv sifatida qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya, Xitoy) tajribasi MDH mamlakatlari amaliyoti bilan qiyoslab ko'rildi va ularning o'ziga xos jihatlari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi globallashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyatining samaradorligi ularning nafaqat milliy miqyosdagi resurs bazasiga, balki xalqaro moliya bozorlaridan uzoq muddatli resurslarni jalb qila olish salohiyatiga ham bevosita bog'liqdir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli resurslarni shakllantirishning asosiy manbalari xalqaro moliya institutlari, obligatsiyalar bozorida jalb qilinadigan resurslar, transmilliy banklarning kredit liniyalari va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Jahon amaliyotida uzoq muddatli resurslarni jalb qilish mexanizmlari bank tizimining barqarorligini mustahkamlash, kapital yetarilgini oshirish va real sektor korxonalarini investitsion loyihalar bilan ta'minlashga qaratilgan. Masalan, Yevropa mamlakatlarida obligatsiya bozori va pensiya jamg'armalari tijorat banklari uchun asosiy uzoq muddatli resurs manbalari sifatida shakllangan bo'lsa, AQShda esa fond bozori va ipoteka kreditlari orqali moliya oqimlari keng jalb etilmoqda. Bu jarayon moliya bozorlarining yuqori darajada rivojlanganligi, huquqiy bazaning mukammalligi va investorlar ishonchining yuksakligi bilan izohlanadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun ham xalqaro tajribani o'rganish va milliy bank tizimiga moslashtirish nihoyatda muhimdir. Chunki xalqaro moliyaviy resurslarni jalb qilish nafaqat banklarning resurs



bazasini mustahkamlash, balki iqtisodiyotning barqaror o'sishi, investitsion muhitning yaxshilanishi va moliya tizimining global integratsiyasini jadallashtirishda ham muhim rol o'ynaydi.

E'tirof etish lozim, xorijiy mamlakatlar bank amaliyotida uzoq muddatli resurslarni shakllantirish yuzasidan ma'lum darajada tegishli tajriba va andozalar mavjudki, ularning ijobiy jihatlarini mamlakatimiz tijorat banklariga tatbiq etish foydadan holi bo'lmaydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga a'zo mamlakatlarda, shuningdek respublikamiz banklari faoliyatida uzoq muddatli resurslarni shakllantirish hamda ularni joylashtirish masalasi sobiq Ittifoq tuzumi barham topgandan keyin boshlandi, shu davr ichida ushbu mamlakatlarda banklarning uzoq muddatli resurslarini mustahkamlash borasida ma'lum tajriba va usullar shakllandi.


Biz MDHga a'zo mamlakatlar bank tizimida uzoq muddatli resurslarni mustahkamlash jarayonini tadqiq qilishda asosiy e'tiborni ushbu mamlakatlar bank tizimida resurslarni shakllantirish borasida o'ttirilgan tajribalar, mavjud muammolar va ularning o'ziga xos jihatlariga qaratamiz. Ya'ni, ushbu mamlakatlarda tijorat banklari resurslarini shakllantirish bilan bog'liq masalalar iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasidan kelib chiqayotgan dolzarb vazifalar bilan hamoxang tarzda amalga oshirilmoqda, yanayam aniqroq kilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklari qisqa muddatga mo'ljallangan stixiyali strategiyasi tarzida amalga oshirilmoqda.

Vaholanki, tijorat banklari uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash masalasi uzoq muddatga mo'ljallangan ma'lum strategiya va siyosat asosida amalga oshirishni talab etadi. Albatta, ushbu strategiya mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish borasida ishlab chiqilgan uzoq muddatli strategiya bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan tartibda yaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotlar va izlanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, banklarning uzoq muddatli moliyaviy resurslar hajmini oshirishga qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar bevosita va bilvosita ta'sir qiladi.

Bizning nazarimizda, shunday omillarning asosiylari sifatida mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorini samarali faoliyatini rivojlantirish, aholining iste'mol tovarlarga bo'lgan talabining 75-80 foizini mahalliy ishlab chiqarish hisobidan ta'minlash, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning (inflyatsiya, ishsizlik, o'rtacha ish haqi va b.) real darajadagi barqaror holatini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Quyidagi rasmda iqtisodiy jihatdan rivojlangan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy va Yaponiya mamlakatlarning bank resurslari manbalarining tarkibi va dinamikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.



1-rasm. Ayrim rivojlangan mamlakatlar bank tizimi resurslari tarkibida uzoq muddatli mablag'larning ulushi, (jamiga nisbatan foizda, 1-yanvar holatiga)[5].

1-rasmda rivojlangan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy va Yaponiya mamlakatlari banklari resurslari tarkibida uzoq muddatli (muddatli va jamg'arma depozitlari) mablag'larning ulushi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, 2021-yil 1-yanvarda AQSh banklari resurslari tarkibidagi uzoq muddatli resurslar ulushi 65,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil 1-yanvarga kelib ushbu ko'rsatkich 67,1 foizni yoki tahlil etilayotgan davrda 1,9 punktga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Buyuk Britaniya va Germaniya banklari resurslari tarkibida uzoq muddatli resurslarning ulushi ham nisbatan yuqori bo'lib, 1.3-rasmda keltirilgan mamlakatlar ichida ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Tadqiq etilayotgan davrda

ushbu mamlakatlar banklarining resurslari tarkibida uzoq muddatli mablag'larning ulushi 50-54 foizdan iborat bo'lgan.

Xitoy Xalq Respublikasi mamlakatalari banklari resurslari tarkibida uzoq muddatli mablag'larning ulushi nisbatan yuqori darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, ushbu ko'rsatkich 2021-yil 1-yanvarda holatiga qariyb 50,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil 1-yanvarga holatiga 60,0 foiz atrofida bo'lgan.

Rasmdan rivojlangan mamlakatlar ichida Yaponiya banklari resurslari tarkibida uzoq muddatli mablag'larning ulushi tahlil etilayotgan davrda 44-50 foizdan iborat bo'lganligini ko'rishimiz mumkin, biroq Yaponiya bank tizimi resurslari tarkibida uzoq muddatli mablag'larning ulushi keyingi yillarda oshib borish tendentsiyasiga ega bo'lgan.

Shuningdek, tijorat banklari resurslari tarkibida muddatsiz depozitlar ulushining pastligi mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchining yuqoriligidan, shuningdek mamlakatda inflyatsiya darajasining pastligidan va muddatli depozitlar hisobidan barqaror daromad topish imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Ayniqsa, tahlil etilgan davr mobaynida AQSh tijorat banklarida muddatsiz depozitlarning ulushi juda past darajada bo'lgan.

AQShda tijorat banklari faoliyatini Federal xazina tizimi (FZT) tartibga solib turadi. Bundan tashqari AQShda FZTga a'zo bo'lmagan, ya'ni federal hukumatning qonunlari asosida faoliyat yuritadigan tijorat banklari mavjud bo'lib, ushbu banklar shtat banklari deb yuritiladi. AQShda 1987-yilda jami 15220 tijorat banklari mavjud bo'lgan bo'lsa, ularning 6000 tasi FZT tarkibiga a'zo sifatida kirgan. FZTga kirish uchun tijorat banklari joylashgan joyi, hududning iqtisodiy salohiyati va ahamiyatiga qarab, ustav kapitalining minimal darajasi 50, 100 va 200 ming AQSh dollari tashkil etishi talab etiladi[6].

FZTga a'zo banklar uning qarz mablag'laridan, o'zaro resurslarni bir biriga o'tkazish hatto samarali loyihalarni moliyalashtirish uchun bankning iqtisodiy normativlari talab darajasidan past bo'lganda o'zaro hamkorlikda kreditlash xizmatlaridan foydalanish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, FZTga mamlakatdagi banklarning yarmidan kamrog'i a'zo bo'lgan bo'lsa-da, talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarning 85 foizga yaqini, muddatli depozitlarning esa yarmiga yaqini FZTga a'zo banklar hissasiga to'g'ri keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyatida uzoq muddatli resurslarni jalb qilish masalasi milliy moliya tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyoti shuni tasdiqlaydiki, rivojlangan mamlakatlarda obligatsiyalar bozori, pensiya jamg'armalari, ipoteka kreditlari va fond bozori banklarning uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish O'zbekiston bank tizimi uchun ham muhim yo'nalishdir.

Shuningdek, MDH mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, qisqa muddatli va stixiyali strategiyalar banklarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda yetarli emas. Shu bois, milliy banklar uchun uzoq muddatli strategik yondashuvlarni ishlab chiqish, kapital yetarililigini oshirish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash ustuvor vazifalar sifatida qaralishi lozim.

Tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarni jalb etish jarayoniga ijtimoiy-iqtisodiy omillar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini mahalliy ishlab chiqarish hisobidan qondirish, inflyatsiya va ishsizlik darajasini barqaror saqlash, investitsion muhitni yaxshilash kabi omillar banklarning resurs bazasini kengaytirish imkoniyatlarini oshiradi.

Umuman olganda, tijorat banklari uchun uzoq muddatli resurslarni jalb qilish nafaqat ularning moliyaviy mustahkamligini ta'minlaydi, balki mamlakat iqtisodiyotida investitsion loyihalarning samarali amalga oshirilishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ham ta'minlaydi. Shu sababli, O'zbekiston bank tizimi rivojlanishida xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda milliy modelni shakllantirish va uzoq muddatli resurslarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Diamond, D. W., & Dybvig, P. H. (1983). Bank runs, deposit insurance, and liquidity. *Journal of Political Economy*, 91(3), 401–419.
2. Levine, R. (1997). Financial development and economic growth: Views and agenda. *Journal of Economic Literature*, 35(2), 688–726.
3. Mishkin, F. S. (2001). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets* (6th ed.). Addison Wesley.
4. Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). Credit rationing in markets with imperfect information. *The American Economic Review*, 71(3), 393–410.
5. Allen, F., & Gale, D. (2000). *Comparing financial systems*. MIT Press.
6. Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (1998). Law, finance, and firm growth. *The Journal of Finance*, 53(6), 2107–2137.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100